

QADIM TARIXGA EGA “DOIRA” CHOLG’USI

Tillayev Farrux Shavkatovich

*Respublika musiqa va san’at kolleji
“Folklor san’ati” kafedrasida katta o’qituvchisi*

Annotatsiya: *Xalq cholg’u asboblarning paydo bo’lish tarixi uzoq o’tmishga borib taqaladi. Musiqachilik san’atida dastlab urma zarbli cholg’ular paydo bo’lgan. Bular Nog’ora, childirma, dovulcha va doiralardir. Qadim zamonlardan to hozirgi davrimizgacha bizga yetib kelgan doira cholg’u asbobi o’zgarmagan holda saqlanib kelmoqda.*

Kalit so’zlar: *Doira, dapp, dapchi, childirma, doirachi.*

O’zbekistonda san’at va madaniyat zamonaviy darajada rivojlanib bormoqda. Haqiqatan ham musiqa san’ati milliy asoslarda rivojlantirilishi kerak. Aks holda, musiqa san’atida qorishiq tarzidagi salbiy bir holat kelib chiqadi. Misol uchun, keyingi paytlarda doira ijrochilik san’atida tanqidiy bir holat paydo bo’ldi. E’lon qilinayotgan adabiyotlarda doira usullariga (zarbalariga) nisbatan ahamiyatsiz masala sifatida qaralmoqda. Bu hol ayniqsa, yoshlar ta’limiga salbiy ta’sir ko’rsatayotgani sir emas. Bunday salbiy holatlarning oldini olish yo’llaridan biri - ustozlar merosini chuqur o’rganishdir. Barcha sohalarda bo’lganidek, doira usullari borasida ham biz ulkan merosga egamiz. Mamlakatimiz bolalar musiqa va san’at maktablari, madaniyat va san’at akademik litseyi va Respublika musiqa va san’at kollejlari, san’at va madaniyat oliy ta’lim muassasalarida milliy cholg’ular qatorida doira bo’yicha uzviy va chuqurlashtirilgan saboq berib kelinmoqda. Bu borada quyidagilarga ahamiyat berish dolzarb bo’lib turibdi: - ustozlarning doira usullariga doir merosi va saboqlarini chuqur o’zlashtirish; - doira usullari nazariyasi va amaliyotini yuksak darajada egallash; - ustozlarning doira usullarini asrab-avaylash va ularni sayqallashtirib borish; - ustozlarning doira usullarini ommaviy tarzda keng targ’ibot qilish. Bularga ahamiyat berish doira usullari bo’yicha talab darajasida ko’nikmani va malakani egallashga olib keladi.

Xalq cholg’u asboblarning paydo bo’lish tarixi uzoq o’tmishga borib taqaladi. Musiqachilikda dastlab urma zarbli cholg’ular paydo bo’lgan. Bular Nog’ora, chindovul, childirma, dovul va doiralardir. Qadim zamonlardan to hozirgi davrimizgacha bizga yetib kelgan doira cholg’u asbobi o’zgarmagan holda saqlanib kelmoqda.

Musiqa sohasida, O’rta Osiyo va Sharq xalqlari qatori, o’zbek usullari, ya’ni ritmik yo’llari va ularning rivojlanish usullari alohida o’rin egallaydi. Usullar qoida bo’yicha urib chalinadigan musiqa asboblari ijrosida qo’llaniladi. Eng ko’p tarqalgan urma zarbli musiqa asboblardan, O’zbekistonda, Tojikistonda va Uyg’ur xalqlari, shu bilan bir qatorda, Sharqda o’zining shirali ovozigacha ega bo’lgan, musiqa cholg’u asbobi doira hisoblanadi.

Doira iborasi ba'zan «Dapp», «Childirma», «Chirmanda» deb yuritiladi. Xorazmda dapp, childirma ijrochini esa "Dappchi"-childirmachi deb aytadilar, Buxoroda doyradast, Farg'onada chirmandachi, Samarqanda esa doirachi deb yuritiladi.

Doira o'zbek musiqa san'atida qadimgi cholg'ulardan hisoblanadi. U barcha cholg'ularga usuliy jo'r bo'lib kelmoqda. Buning natijasida barcha zamonlarda doira usullarini nazariy va amaliy rivojlantirib borishga, ularning doira san'atkorlari tomonidan yetarli darajada o'zlashtirilishiga alohida e'tibor berilgan.

«TANTANA»

«Tantana» asari Sharq xalqlarining to'y-tomoshalarida, quvonchli kunlarida, turli xil bayramlarida ijro etib kelingan. Ana shu bayramlarda san'atkorlarimiz o'zlarining turli cholg'ularini namoyish qilishgan. Shunday namoyishlarda doira bevosita yetakchi o'rinlarni egallab kelgan. Ushbu usullar tantanavor, bayramona ohangda jaranglaydi. Bu usullarni ijro etganda albatta, ulug'vorlik, yorqin va aniq ijro etish kerak bo'ladi. Usta Olim Komilov ijodiga mansub.

«PILLA»

Bu musiqiy asar ham Usta Olim Komilov tomonidan yaratilgan bo'lib, Mukarrama Turg'unboyeva doira jo'rligida konsert dasturi sifatida raqs sahnalashtirgan. Raqsda pilla qurtlarini tut bargi bilan boqish, shoyi matolami to'qish va belbog' tikish jarayoni boshidan oxirigacha aks ettirilgan.

«PAXTA»

Hajm jihatidan katta, xoreografik kompozitsiyasi keng miqyosda ishlangan «Paxta» raqs asarining mazmuni shundan iborat: erta ko'klam kunlari quyoshli kundan sevinib dalaga chiqqan qiz chigit eka boshlaydi. Paxta pishadi. Qiz bir qo'llab paxta terar ekan, ikki qo'llab paxta terishni yaxshiligiga ishonadi, o'rtoqlarini chaqirib, ularni ham o'z san'atiga o'rgatadi. Oqibatda ular paxtani o'z muddatidan oldin terib oladilar. Raqs oxirida bu ilg'or terimchi qizlarni tomoshabinlar chapak chalib olqishlaydilar. Doira cholg'usini ijro etishda ham o'ng va chap qo'lning kuchlanishi, tovushlarni aniq ifoda qila olishi, raqqosaning harakatlarini his qila bilishi va uyg'unligini ta'minlashga qaratiladi.

«FARHOD VA SHIRIN»

«Farhod va Shirin» - sevgi va vafo, do'stlik va sadoqat, mehnat va ijodkorlik, vatanparvarlik va qahramonlik dostonidir. Komillikka yetaklovchi insoniy fazilatlarni, umumbashariy orzu-intilishlarni tarannum etgan bu asar o'zbek klassik adabiyotining yangi va uikan bir asaridir. Alisher Navoiy dostoni asosidagi V. Uspenskiy bilan G. Mushelning «Farhod va Shirin» musiqali dramasi 1930-yillar o'rtasida yaratilgan eng katta musiqali drama asari hisoblangan. Asarning doira jo'rligidagi sahna raqslari bevosita Usta Olim Komilovning ishtiroki bilan yaratilgan va sahnada ijro etilgan.

«SHODIYONA»

XV-XVI asrlarda juda ko'p mashhur musiqachilar, bastakorlar, xofizlar yetishib chiqdi. Shulardan Abduqodir Noyi, Qulmuhammad Shayxiy, Husayn Udiy, Qosim Rabboniy, Ustod Shodiy, Najmiddiy Kavkabiyy kabi san'atkorlar o'z zamonasining san'at sohasidagi bilimdon

ijodkorlaridan edi. Professional musiqachilardan tashqari Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy va Binoiy kabi shoirlar ham musiqa sohasi bilan shug'ullanib, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada hissa qo'shishgan. Masalan, Mirzo Ulug'bek o'z davrida «Belujiy», «Shodiyona», «Axloqiy», «Tabriziy», «Usuli ravon» va «Usuli bahri» usullarini yaratgan edi. Mir Alisher Navoiy «Isfahoniy» va boshqa kuylarni ijod qiladi. Jomiy va Binoiy musiqa nazariyasiga doir asarlar yaratadi. Markaziy Osiyo xalqlarida Mirzo Ulug'bekning «Shodiyona» asari keng ommalashgan usullardan hisoblanadi. Bu usulni Usta Olim Komilov, Ahmadjon Umurzoqov bilan birgalikda surnay va nog'orada ijro etishgan. Nog'orada ijro etilgan «Shodiyona» usulini doirada ijro qilinib, notaga tushirildi. 1952-yilda nashr qilingan «Doiraning zarblari» kitobida O'zbekiston xalq artisti Usta Olim Komilovdan I.A.Akbarov 47 ta doira usullarini nomlari bilan yozib olgan va bir chiziqli notaga tushirgan. Ushbu usullarni to'rt chiziqli yangi nota yo'lga moslashtirib, yosh avlodga o'quv qo'llanmadan foydalanish uchun taqdim etilmoqda.

«KATTA O'YIN»

Katta o'yin (nog'ora o'yin) - qadimiy raqslardan bo'lib, odatda, xalq bayramlari va to'y tantanalarida, katta maydonlarda nog'ora, karnay-surnay jo'rligida ijro etilgan. Raqsning qo'shaloq nomlanishini avvalo, uning musiqiy jo'rligi nisbatan davomli ijro etilishi bilan tushuntirish mumkin. «Katta o'yin» raqsi Alisher Navoiyning «Farhod va Shirin» musiqiy dramasiga kiritilgan. Raqs tantanavor tarzda ijro etilgan. Ustoz san'atkorlarning aytishlaricha, usulning o'z ashulasi bo'lgan. Usta Olim Komilov o'sha ashulalarning usullarini jamlab, tartibga keltirgan.

«OLTIN KO'L»

Andijon viloyatining Oltin ko'l tumani xalq xo'jaligining ko'plab sohalarida eng ilg'or va mashhur hududlardan biri hisoblangan. Ushbu asar ana shu ilg'or tumanga bag'ishlab yozilganligi ehtimoldan uzoq emas. Bu asar ko'p yillar davomida ustoz sozanda To'ychi Inog'omov repertuaridan joy olgan. «BURULCHA» «Burul» so'zining lug'aviy ma'nosi xoldor, ko'kish otni anglatadi. Raqsda esa chaqqon burilib, aylanib o'ynash ma'nosini beradi. Usta Olim Komilov ijodiga mansub bu asar To'ychi Inog'omov ijrosida notaga tushirilgan.

«QO'QONCHA»

Vodiyga xos bo'lgan usullar majmuasi Qo'qonda qadimdan mavjud bo'lgan xalq og'zaki ijodi, xususan, laparlar, yallalar va boshqa aytishuvlarga asoslanganligi ehtimoldan holi emas. Usta Olim Komilov ijodiga mansub.

«DOVUL»

«Dovul» so'zi ikki xil ma'noni anglatadi. Birinchisi - kuchli yemiruvchi bo'ron, ikkinchisi - ovchilar, to'pchi qorovullar yoki harbiylar uchun belgilangan maxsus nog'ora. Ushbu usullar momaqaldiroq, chaqqoq kabi tabiat hodisalarini tasvirlaydi. Usta Olim Komilov ijodiga mansub bu asar To'ychi Inog'omov ijrosida yozib olingan.

«QO'SH QARS»

Ushbu asar XX asming yigirmanchi yillarida turkum ko'rinishda vujudga kelgan bo'lib, ikki zarb ma'nosini anglatadi. Doira cholg'usida sozandaning ikkala qo'li ishtirokida ijro etilishi va shu bilan birga, doirada ikkita asosiy zarb - «bum» va «bak» usullari ham bu nomlanishga asos qilib olingan. Usta Olim Komilov ijod qilgan «Qo'sh qars»ni ustoz doirachilar doira ijrochiligidagi barcha usullarning asosi deya ta'riflaganlar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Akbarov II. Musiqa lug'ati T., San'at 1990 yil.
2. Vizgo T. O'rta Osiyo musiqa asboblari. Moskva., 1980 yil.
3. Karomatov F. O'zbek chlg'uchilik musiqasi. Moskva., Muzika 1980yil.
4. Odilov A. O'zbek xalq cholg'u asboblari ijrochilik tarixi. Toshkent., O'qituvchi 1995 yil.
5. Fitrat A. O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi. Toshkent., Fan., 1993 yil.
6. Petrosyants A.I. Cholg'ushunoslik T., San'at 1990 yil.
9. Yunusov, G. Y., Parpiev, A., & Ernazarov, Z. (2021). A look at samples of uzbek folklore. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(5), 9-14.
10. Yunusov, G., Ahmedov, R., Jurayev, I., & Yuldasheva, S. (2021). A Look At The Folklore of Fergana Valley or History of A Song in The Series of Tanovar. *Annals of the Romanian Society for Cell Biology*, 25(6), 2225-2232.